

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
AVTOMOBIL YO'LLARI  
QO'MITASI



КОМИТЕТ ПО АВТОМОБИЛЬНЫМ  
ДОРОГАМ ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ  
ТРАНСПОРТА РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН

“UZAVTOYO'LBELGI”  
DAVLAT UNITAR KORXONASI  
100000, GSP, Toshkent sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 68.  
Tel.: 8-371-268-92-49, e-mail: uzavtoyobelgi@mail.ru

ГОСУДАРСТВЕННОЕ УНИТАРНОЕ  
ПРЕДПРИЯТИЕ “UZAVTOYO'LBELGI”  
100000, ГСП, г.Ташкент, проспект Мустакиллик, 68.  
Tel.: 8-371-268-92-49, e-mail: [uzavtoyobelgi@mail.ru](mailto:uzavtoyobelgi@mail.ru)

2024 yil 31 iyul

Toshkent.sh.

## BUYRUQ №118-II

### “O‘zavtoyoyobbelgi” DUKda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 114-son qaroriga muvofiq faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta‘minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va mazkur xatarlarning oldini olish maqsadida ichki tashkiliy tartib-taomillar tizimini (monopoliyaga qarshi komplayens) joriy etish maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 114-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. “O‘zavtoyoyobbelgi” DUKda Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etilsin.
3. “O‘zavtoyoyobbelgi” DUKda faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta‘minlash va doimiy ravishda monitoring qilib borish Marketing va savdo bo‘limi boshlig‘i M.Ibragimovga yuklatilsin (keyingi o‘rinlarda – vakolatli shaxs).
4. Quyidagilar:
  - “O‘zavtoyoyobbelgi” DUKda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq;
  - “O‘zavtoyoyobbelgi” DUKda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi xatarlarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
5. “O‘zavtoyoyobbelgi” DUK faoliyatida qabul qilinayotgan ichki hujjatlarning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga mosligini ta‘minlash maqsadida ichki hujjatlar tasdiqlanishidan avval monopoliyaga qarshi

komplayensga mas'ul bo'lgan vakolatli shaxs bilan majburiy kelishish tartibi joriy etilsin.

**6. Vakolatli shaxs:**

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 114-son qarorida hamda mazkur buyruqning 2-ilovasida tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" da belgilangan vazifalarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishini;

- har yil uchun raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi xatrlarini aniqlash va oldini olish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanishini;

- mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlar, o'rganishlar va tahlillar natijalari yuzasidan ma'lumotlarni "O'zavtoy o'lbelgi" DUK rahbariyatiga hamda monopoliyaga qarshi organga muntazam ravishda kiritib borilishini ta'minlasin.

**7. Mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazoratni o'z zimnamda qoldiraman.**

**Direktor**



**V.Akramov**